

Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va klinik ordinatorlarni o'qitish vakolati berilgan xususiy klinikalar klinik ordinaturasiga kirish test sinovlarida **MEHNAT GIGIYENASI** fanidan foydalaniladigan test varianti tafsiloti

1. Test variantining qo'llanish maqsadi

Mehnat gigiyenasi fanidan test topshiriqlari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda mehnat gigiyenasi faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma, malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berish uchun mo'ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo'luvchi me'yoriy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2009-yil 18-dekabrda VMQ-319-son qarori bilan tasdiqlangan "Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom";

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "2024/2025 o'quv yilida klinik ordinatura (rezidentura)ga qabul qilish to'g'risida"gi 2024-yil 17-iyuldagi 238-son buyrug'i;

Mehnat gigiyenasi faniga oid amaldagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.

3. Mehnat gigiyenasi fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Mehnat gigiyenasi fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va ta'limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kod	Tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi
1.1	<p style="text-align: center;"><i>Mehnat gigiyenasi fan sifatida</i></p> <p>Mehnat gigiyenasi fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Mehnat gigiyenasi fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning mehnat gigiyenasi fani rivojiga qo'shgan hissalari.</p>
1.2	<p style="text-align: center;"><i>Mehnat gigiyenasi haqida umumiy tushuncha</i></p> <p>Ish joyi. Mehnat sharoitlari. Ishlab chiqarishda zararli va xavfli omillar. Mehnat sharoitlarining sinfi. Ishlab chiqarish omillarni gigiyenik me'yorlash prinsiplari. Ishlab chiqarishda zararli va xavfli omillarga gigiyenik baho berishda bosqichlari va rasmiylashtiriladigan xujjatlar. Zararli va xavfli omillarni salbiy ta'sirini oldini olish chora tadbirlarni asosiy yo'nalishlari, usullari va vositalari.</p>
1.3	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda charchash</i></p> <p>Charchash, charchash diagnostikasi, obyektiv va subyektiv belgilari. Charchashni namoyor bo'lish belgilari. Charchash profilaktikasi va uni oldini olishda dinamik steriotip. Mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil qilishni ahamiyati.</p>
1.4	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda mikroiklim sharoiti</i></p> <p>Ishlovchilarni organizmiga noqulay mikroiklim sharoitini ta'siri. Ishlab chiqarishda mikroiklim tushunchasi va uning turlari. Asosiy ko'rsatkichlar tasnifi, baholash usullari. Asosiy mikroiklim ko'rsatkichlarini inson organizmiga va uning faoliyatiga biologik ta'siri. Adaptatsiya va akklimatizatsiya. Noqulay mikroiklim sharoitida ishchilarda kasallanish Mikroiklimning gigiyenik me'yorlash prinsiplari. Ishlab chiqarish sharoitida noqulay mikroiklimni oldini oluvchi profilaktik chora-tadbirlar, umumiy va shaxsiy himoya vositalari, mehnat va dam olish tartibi.</p>
1.5	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarish changi</i></p> <p>Changning gigiyenik ahamiyati Chang hosil bo'luvchi ishlab chiqarish korxonalari. Chang hosil qiluvchi manba va usullar. Chang tasnifi. Kondensatsiya va dezintegratsiya changlari. Changning fizik-kimyoviy tarkibi va ularning gigiyenik ahamiyati. Changlanganlikni aniqlash usullari va ishlab chiqarishda ularni qo'llanilishi. Chang ta'sirida kelib chiqadigan kasb kasalliklari. Changning spetsifik va nospetsifik ta'siri. Ishlab chiqarish sharoitida changga qarshi kurash usullari har xil turdagi changlarga ruxsat etilgan me'yorlarni reglamentlovchi prinsiplar. Changga qarshi qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari. Changga qarshi profilaktik chora tadbirlar.</p>
1.6	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda shovqin</i></p> <p>Shovqinning gigiyenik va ijtimoiy muamolari. Shovqinning fizikaviy tasnifi. Asosiy shovqin manbalari, baholash usullari. Shovqinni organizmga spetsifik va nospetsifik ta'siri. Shovqin kasalligi. Shovqin ta'sirida kelib chiqadigan kasb kasalligi. Shovqinga qarshi qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari. Ishlab chiqarishda shovqinni gigiyenik reglamentlash prinsiplari: me'yoriy daraja, me'yoriy xujjat. Profilaktik chora tadbirlar.</p>
1.7	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda shovqin va tebranish</i></p> <p>Tebranish - gigiyenik muammo sifatida. Ishlab chiqarishdagi tebranish manbalari. Tebranishni gigiyenik tavsifi. Tebranishni organizmga ta'siri. Patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi ishlab chiqarish omillari. Vibratsion kasallik. Tebranishni gigiyenik me'yorlash prinsiplari: ruxsat etilgan me'yoriy darajasi, me'yoriy hujjat. Tibbiy profilaktik chora tadbirlar. Tebranishga qarshi qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari. Mehnat va dam olish tartibi.</p>
1.8	<p style="text-align: center;"><i>Pestitsidlarni qo'llanishida mehnat gigiyenasi</i></p> <p>Pestitsid haqida tushuncha. Pestitsidlarni qo'llanishining gigiyenik aspektlari. Pestitsidlarni qo'llash usullari va turlari, ularni gigiyenik ahamiyati. Pestitsidlarni tasnifi. Pestitsidlarning salbiy ta'sir sharoitlar. Shaxsiy himoya vositalari. Tashqi muhitni</p>

	<p>muxofazalash. Tibbiy-profilaktik tadbirlar. O‘simliklarda biologik himoya vositalarini qo‘llashda ish sharoitiga qo‘yiladigan gigiyenik talablar.</p>
1.9	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarish toksikologiyasi</i></p> <p>Umumiy toksikologiya. Toksikokinetika, metabolizm, dinamikaga ta‘sir etuvchi omillar, zararli moddalarni zaharli ta‘siri. O‘tkir va surunkali kasbdan zaharlanish. Zaharlanishning asosiy sabablari, zaharlanishning aloxidalik ta‘sirini o‘ziga xosligi. Zaharlanishning ta‘sir oqibatlarini. O‘rtacha smenalik va maksimal bir vaqtlik kontsentratsiya haqida tushuncha. Ishlab chiqarishdagi zaharlanishlarni gigiyenik printsiplari.</p>
1.10	<p style="text-align: center;"><i>Kimyoviy moddalar</i></p> <p>Kimyoviy moddalarni zaharli ta‘sirini tajriba o‘tkazish usullari orqali o‘rganish. Kimyoviy moddalarning zaharlilik ko‘rsatkichlari asosida uning xavfliligini aniqlash tartibi. Ish joy havosida zaharli moddalarni miqdorini aniqlash usullari. Kimyoviy moddalarni gigiyenik me‘yorlash printsiplari.</p>
1.11	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarish korxonalarida ayollar mehnat gigiyenasi</i></p> <p>Ishlab chiqarish korxonalarida ayollarga qo‘yiladigan gigiyenik talablar. Ayollarga ta‘sir etuvchi zararli va havfli ishlab chiqarish omil turlari. Ayollar organizmiga spetsifik ta‘sir etuvchi kasbiy omillar kriteriyasi. Ayollar mehnatini muxofaza qiluvchi qonuniy xujjat. Ayollarda dam olish va mehnat qilish tartibi, tungi vaqtlarda ayollar mehnatini taqiqlash, tug‘ishdan avvalgi va tug‘ishdan keyingi ta‘til pul miqdorini oshirish, xomiladorlik davrida ayollarni yengil mehnat sharoitli ishga o‘tkazish, ayollar gigiyenasi xonasini jihozlash, dastlabki va davriy tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish.</p>
1.12	<p style="text-align: center;"><i>Ishlovchilar salomatligi</i></p> <p>Salomatlik haqida tushuncha (Sog‘liqni Saqlash Jamiyati), salomatlik ko‘rsatkichlari. Kasallanishni sotsial, ijtimoiy, ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liqligi. Umumiy kasallanish. Umumiy kasallanish ko‘rsatkichlari. Hodisalar soni. Kasallanish haqida axborot manbai, o‘rganish usullari gigiyenik mehnat sharoitini bilgan holda kasallanishni taxlil qilishda metodologik kirishish, kasb kasalliklari kelib chiqish sababi, tasnifi. Umumiy va kasb kasalliklarni oldini olish choralari.</p>
1.13	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda shikastlanish va uni oldini olish chora tadbirlari</i></p> <p>Shikastlanish, turlari. Taxlil usullari va ishlab chiqarish jaroxati ko‘rsatkichlari. Shikastlanishga qarshi profilaktik choralarni ishlab chiqishda, ishlab chiqishdagi baxtsiz hodisalarni taftish qilish, hisobga olish.</p>
1.14	<p style="text-align: center;"><i>Ishlovchilarni shaxsiy himoya vositalari.</i></p> <p>Sog‘liqni saqlash chora tadbirlari sistemasida shaxsiy ximoya vositalari, tasnifi, gigiyenik talablar. Asosiy va qo‘shimcha shaxsiy ximoya vositalari haqida tushuncha. Foydalanish qoidalari, tozalash usullari, samaradorligiga baho berish.</p>
1.15	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda yoritilganlik</i></p> <p>Ratsional ishlab chiqarishda yoritilganlikni gigiyenik asoslari, uni salomatlikka va ish qobiliyatiga ta‘siri. Ishlab chiqarishda yoritilganlik turlari. Tabiiy va sun‘iy, umumiy va maxalliy yoritilganlik tushunchalari. Avariya holatidagi yoritilganlik. Sun‘iy yoritilganlik. Gigiyenik me‘yorlash. Ishlab chiqarish binolarida insolyatsiya. Yuqori insolyatsiyani oldini olish usullari.</p>
1.16	<p style="text-align: center;"><i>Ishlab chiqarishda ventilyatsiya</i></p> <p>Ventilyatsiya tushunchasi, mohiyati va ishchilarni sog‘lig‘ini saqlovchi chora tadbirlar sistemasidagi o‘rni. Turi va ko‘llanilishi bo‘yicha tasnifi. Ventilyatsiya unumdorligi va samaradorligi tushunchasi, aniqlash usullari. Tabiiy ventilyatsiya. Aeratsiya - qo‘llash uchun ko‘rsatmalar, ta‘sir etish printsiplari. Ishlab chiqarish binolariga qo‘yiladigan asosiy talablar, foydalanish sharoitlari. Mexanik ventilyatsiya, umumiy olib ketuvchi va maxalliy olib ketuvchi ventilyatsiya. Maxalliy olib ketuvchi va olib ketuvchi ventilyatsion moslamalar. Havo olmashtiruv balansi, havo kodensatsiyasi, ishlab chiqarishda qo‘llanilishi uchun ko‘rsatmalar.</p>

	<i>Poligrafiya sanoatida ishlovchi ishchilarning mehnat sharoitlarini gigienik xususiyatlari</i>	
1.17	Poligrafiya sanoatidagi asosiy exlar. Texnologik jarayon. Asosiy kasbda ishlovchi ishchilar. Poligrafiya korxonalaridagi zararli va xavfli omillar. Korxonada ishlovchi ishchilarda fiziologik ko'rsatkichlar. Ishchilarda kasallanish ko'rsatkichlari.	
1.18	<i>Qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarishda mehnat gigiyenasi</i>	
	Qurilish ishlarining asosiy turlari, tashkil etish bosqichlari. Qurilish ishlarni texnologiyasi, moslamalar turi, mexanizatsiya darajasi. Yetakchi bo'lgan zararlarga ishlab chiqarishdagi xavfli omillar va o'rab turgan muhit. Sog'lomlashtirish chora-tadbirlari. Mehnat gigiyenasida ishlab chiqarish materiallariga qo'yiladigan asosiy shartlar, texnologik jarayonga va ishlab chiqarish asboblari gigienik tavsif. Asosiy kasblar. Ishlab chiqarishda xavfli va zararli omillar. Umumiy va kasb kasalliklari. Asosiy profilaktik chora-tadbirlar, atrof muhitni muxofaza qilish, mehnat sharoitini yaxshilash.	
1.19	<i>Mashina qurilish sanoatida mehnat gigiyenasi</i>	
	Mashinasozlik sanoatini mamlakat miqyosida iqtisodiy va ishlab chiqarish tavsifi. Barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini ilmiy texnikaviy rivojlanishda mashinasozlik sanoatini ahamiyati. Mashinasozlikni turlari. Mexanizatsiya va avtomatizatsiya - ishlab chiqarishni rivojlantirishda asosiy yo'llari. Mehnatni yengillashtirish va mehnat sharoitini gigienik yaxshilash. Texnologik jarayon bosqichlari, mehnatni tashkillashtirilganligi va jihozlanganlik turlari, ularning gigienik tavsifi. Asosiy kasblar va ularning fizik-gigienik tavsifi. Umumiy va kasb kasalliklari. Profilaktik chora-tadbirlar.	
1.20	<i>Ishlab chiqarish muhitni muhofaza qilish va axolini sanitar epidemiologik osoyishtaligi sohasida Sanitariya-epidemiologiya xizmati olib borish asoslari</i>	
	Mehnatni muhofaza qilish va mehnat gigiyena sohasida qonunchilik. Ishlab chiqarish obyektlarda ogohlantiruvchi sanitariya nazorati. Ishlab chiqarish obyektlarda joriy sanitariya nazorati. Ishlab chiqarish obyektlarining sanitariya holati tahlili.	
1.21	<i>Mehnat sharoitlari bo'yicha ish joylari attestatsiyasi</i>	
	Ish joylarini guruhlash va ish joylarini ro'yhatini aniqlash. Mehnat sharoitlari bo'yicha ish joylarini attestatsiyasi uchun omillarni o'lchash va baholash, o'lchash bayonlarni to'ldirish. Mehnat sharoitlarining ish joylarini attestatsiyasi bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish.	
1.22	<i>Mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlarni bajarish</i>	
	Mehnat gigiyenasi bo'yicha hodisa, jarayonlar, nazariya va qonuniyatlar hamda tushunchalar bo'yicha mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlar.	

5. Mehnat gigiyenasi faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - mehnat gigiyenasi fanining atamaları, asosiy obyektlar, hodisalar va jarayonlarni bilish; - mehnat sharoitlari, texnologik jarayonlar, umumgigiyenik qonuniyatlar mohiyatini tushunish.
2.	yuqori kognitiv daraja	<ul style="list-style-type: none"> - ishlovchilar, mehnat sharoitlari bilan texnologik jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olish; - mehnat sharoitlari, texnologik jarayonlarni tahlil qilish; - fanga oid turli qiyinlik darajadagi masalalarni yecha olish; - mehnat gigiyenasining qonuniyatlar va nazariyalarni, ular orasidagi bog'liqlikni mantiqiy fikrlash, tahlil qila olish.

6. Mehnat gigiyenasi fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Mehnat gigiyenasi faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta‘lim standartlari, mehnat gigiyenasi fani umumta‘lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar		Kod	
Mehnat gigiyenasi	Ishlab chiqarish obyektlarda mehnat sharoitlar va texnologik jarayonlar haqidagi ma‘lumotlarni xulosa qilish kompetensiyasi	Mehnat gigiyenasi fan sifatida	<i>Mehnat gigiyenasi fan sifatida</i> Mehnat gigiyenasi fanning ilmiy-tadqiqot metodlari. Mehnat gigiyenasi fanining rivojlanish tarixi. Olimlarning mehnat gigiyenasi fani rivojiga qo‘shgan hissalarini bilish.	1.1.1
			Mehnat gigiyenasi haqida umumiy tushuncha, mehnat sharoitlari va ishlab chiqarishda zararli va xavfli omillarni tushunish.	1.1.2
		Ishlab chiqarish obyektlarda sanitariya nazorat olib borish	Mehnat gigiyenasi shifokorining ish yuritish shakllari va usullari bilish va tushunish	1.2.1
			Xatlar, shikoyatlar va boshqalarni ko‘rib chiqish tartibi haqidagi ma‘lumotni bilish.	1.2.2
			Yangi texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish uskunalari, ishchi asboblari, kimyoviy moddalar va materiallarga me‘yoriy-texnik hujjatlarni sanitar-epidemiologik ekspertizasini bilish va tushunish	1.2.3
			Shaxsiy himoya vositalari va sanitar-maishiy xonalar bilan ta‘minlanganlikda, texnologik jarayonlarni tashkillashtirishda, sanitar-texnik uskunalar haqida gigiyenik talablarni bilish va tushunish	1.2.4
		Ishlab chiqarish omillarni gigiyenik me‘yorlash	Ishlab chiqarish muhitni fizik omillari haqidagi ma‘lumotni bilish	1.3.1
			Ishlab chiqarish muhitda kimyoviy omillar haqidagi ma‘lumotni bilish	1.3.2
			Ishlab chiqarish muhitida biologik omil haqidagi ma‘lumotni bilish	1.3.3
			Zararli va xavfli omillarni salbiy ta‘sirini oldini olish chora tadbirlarini asosiy yo‘nalishlari, usullari va vositalari bilish	1.3.4

Ishchilar salomatligiga ishlab chiqarish muhitning ustivor havfli omillarini bilish va tushunish kompetensiyasi	Ishchilar salomatlik holatini o'rganishning metodologiya asoslari	Ishchilarning kasallanishni o'rganish va tahlil qilish haqidagi ma'lumotni bilish	2.1.1
		Kasb kasalliklari to'g'risida xabar berish va tekshirish tartibini bilish va tushunish	2.1.1
		O'zR SSV 200-sonli buyruqni bajarish bo'yicha mehnat gigiyenasi shifokori-mutaxassislarining ish mazmuni vositalari bilish va tushunish	2.1.2
		Ishchilarni tibbiy ko'riklardan o'tkazishni qonuniy asoslari haqidagi ma'lumotni bilish	2.1.3
		Dastlabki va davriy tibbiy ko'riklar ustidan nazorat olib borish bosqichlari haqidagi ma'lumotni bilish	2.1.4
		Tibbiy ko'riklar o'tkazishda rasmiylashtiriladigan xujjatlarni bilish va tushunish	2.1.5
		Ishchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzi sanitariya bilimlarini targ'ibot qilish haqidagi ma'lumotni bilish	2.1.6
Ishlab chiqarish korxonalarida havo almanishuvi tashkillashtirish kompetensiyasi	Ventilyatsiya holati ustidan sanitar-gigiyenik nazorat	Biologik preparatlarni ishlab chiqishda sanitariya nazorati haqidagi ma'lumotni bilish	2.2.1
		Sintetik polimer materiallarni ishlab va qayta ishlash chiqarishda mehnat gigiyenasini bilish va tushunish	2.2.2
Yengil sanoatda mehnat gigiyenasi haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Yengil sanoatda mehnat gigiyenasi	Tiquvchilik sanoatida mehnat gigiyenasini bilish va tushunish	3.1.1
		To'qimachlik sanoatida mehnat gigiyenasini bilish va tushunish	3.1.2

	Ishlab chiqarish obyektlarni ekologik pasportlar tuzish haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat sharoitlarini sog'lomlashtirish va atrof muhitni muhofaza qilish	Avtotransport korxonalarida mehnat gigiyenasi haqidagi ma'lumotni bilish	4.1.1
			Qishlok xo'jalik korxonalarida sanitar nazoratni bilish va tushunish	4.1.2
	Kasb kasalliklarning xavf omillari, rivojlanishining zamonaviy nazariyalari va tasniflari haqida bilish va tushunish kompetensiyasi	Kasbiy xavf	Tibbiyot xodimlarni mehnat gigiyenasi haqidagi ma'lumotni bilish	4.2.1
	Kognitiv kompetensiya	Mantiqiy fikrlashga asoslangan masala va topshiriqlarni bajarish	Mehnat gigiyenasi fanining nazariya va qonuniyatlar hamda tushunchalar bo'yicha mantiqiy fikrlashga asoslangan masalalar, grafik va rasmi topshiriqlarni bajara olish.	5.1.1

7. Foydalanishga tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Iskandarov T.I., Iskandarova G.T. Mehnat gigiyenasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanma. Qo'llanma. – Toshkent. O'z RSSV ning SGKKITI. 2009 y.

2. Iskandarova G.T. Mehnat gigiyenasi. Darslik. – Toshkent. O'z RSSV ning SGKKITI. 2009 y.

3. Iskandarova G.T. Текстовый лекций по гигиене труда. - Toshkent. O'z RSSV ning SGKKITI. 2009 y.

***Izoh:** Mazkur hujjatga aprobatsiya natijalari hamda vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.